

«7» noyabr 2022 yil

Qarshi shahri

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritilgan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti nomidan nizom asosida harakat qiluvchi institut Rektori O. Sh. Bazarov bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiluvchi "Mamatov Saloxiddin" xususiy korxonasi rahbari S. Mamatov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagi haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA P R Y E D M Y E T I

- 1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga ko'ra «Buyurtmachi» Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'quv binosiga tutash yo'llarini kapital ta'mirlash uchun loyiha asosida 310 400 000 (uch yuz o'n million to'rt yuz ming) so'mga bajarib berishni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. «Buyurtmachi» esa «Pudratchi» ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni, tegishli loyiha xujjatlari bilan ta'minlash, bajarilgan kapital ta'mirlash ishlari uchun tegishli tartibda qabul qilib, to'lov ishlarini amalga oshirish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.
- 1.3. Kapital ta'mirlash ishlarini bajarish muddati 2022 yil 4 noyabr oyidan 2022 yilning 31 dekabrigacha.

2. SHARTNOMA BAHOSI

- 2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan kapital ta'mirlash ishlar qiymatini o'z ichiga olgan holda 310 400 000 (uch yuz o'n million to'rt yuz ming) so'm.
- 2.2. Qurilish bahosi va muddati mazkur shartnomada nazarda tutilishi mumkin bo'lgan qurilish hajmining oshishi yoki kamayishini kapital ta'mirlash ishlari bajarilgunga qadar tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan amalga oshiriladi.
- 2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina shartnoma bahosiga oid o'zgartirishlar shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

3. SHARTNOMA BO'YICHA MAJBURIYATLAR

«Pudratchi»:

- 3.1. Barcha kapital ta'mirlash ishlarini mazkur shartnomaga ilova qilingan loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan hajmda va belgilangan muddatda o'zining kuchlarini yoki jalb qilingan uchinchi shaxslar yordamida bajarish hamda shartnoma shartlariga ko'ra «Buyurtmachi»ga topshirish.
- 3.2. «Buyurtmachi» yetkazib bergan va o'z kuchi mablag'i evaziga tashib keltirilgan qurilish materiallari va konstruksiyalarini ularga zarar yetmagan holda saqlash.
- 3.3. Kapital ta'mirlash ishlari bajarilayotgan obyektida ekologiya va tozalikka rioya etgan holda texnika va yong'in xavfsizligi tadbirlarini ta'minlash.
- 3.4. O'zi tomonidan keltirilgan qurilish materiallarining loyihada nazarda tutilgan talablarga (standart va h.k) javob berishini ta'minlash.

«Buyurtmachi»:

- 3.5. Kalendar ish rejasida belgilangan tartibda lekin shartnoma imzolangan kundan e'tiboran 3 kun muddat ichida obyekt maydoni va loyiha hujjatlarini «Pudratchi» ga topshirish.
- 3.6. Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatda bajarilgan issiqlik tizimini joriy ta'mirlash ishlari uchun «Pudratchi» ga haq to'lash.
- 3.7. «Pudratchi» ning yozma talab, iltimos to'lov va e'tirozlari 3 kunlik muddat ichida o'rganilib chiqib munosabat bildirish.
- 3.8. Kalendar ish rejasi asosida bajarilgan ishlarni tegishli tartibda qabul qilib olish.

4. TO'LOV VA HISOB-KITOBLAR

- 4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksiga asosan budjet tashkilotlarini tovar (ish.xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari majburiy tarzda G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bajariladigan ishlar bo'yicha 3 kun ichida oldindan 30 % to'lov amalga oshiriladi va kolgan 70 % to'lovi takdim etilgan bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi F-3, F-5 ga asosan amalga oshiriladi.
- 4.2. Bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagunga qadar to'lov ishlari kechiktirilishi mumkin.

5. ISHLARNI OLIB BORISH VA KAFOLAT MUDDATI.

- 5.1. «Buyurtmachi» qurilish obyektiga o'z vakili «Texnik nazoratchi»ni tayinlaydi. U «Buyurtmachi» nomidan ishlarning hajmi va sifati, materiallari hamda boshqa ashyolarni shartnoma shartlari va loyiha hujjatlari talablariga mosligini tekshirib, bajarilgan ishlar dalolatnomasini rasmiylashtiradi.
- 5.2. Joriy ta'mirlash ishlari mazkur shartnomaga ilova qilingan ish grafigi, kalendar ish rejasiga ko'rsatilgan muddatgacha «Pudratchi» tomonidan bajariladi.
- 5.3. Qurilish maydonida bajarilgan issiqlik tizimini joriy ta'mirlash ishlarini loyiha hujjatlari va qurilish qonun qoidalari talablariga javob berish uchun «Pudratchi» ma'sul sanaladi.
- 5.4. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlarini qurilish materiallari, jihozlaridan foydalanish va ishlarini kafolatlik muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagandan so'ng 12 oy obyektning kafolatli muddati belgilanadi.
- 5.5. Sifatsiz bajarilgan ishlarni qayta tiklash uchun sarf qilingan qo'shimcha harajatlar shartnoma qiymatidan tashqari bo'lib, aybdor hisobidan qoplanadi.
- 5.6. Sifatsiz va kamchilik bilan bajarilgan ish aniqlanganligi xususidagi dalolatnoma bilan tomonlar kelisha olmasalar, ekspertiza tayinlanadi yohud iqtisodiy sud tartibida hal qilinadi.

6. QURILISHNI KONSERVATSIYALASH VA FORS-MAJOR HOLATLAR

- 6.1. Qurilishni konservatsiyalashda taraflar majburiyatlarining ijro muddatini bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat (fors-major) 1 oydan ortiq davom etadigan bo'lsa, qurilishni noma'lum muddatga to'xtatish (konservatsiyalash) uchun chora-tadbirlarni ko'rishni muhokama etadilar. Bir to'xtamga kelinmasa, 2 oy mobaynida taraflar shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidirlar.
- 6.2. Agarda tomonlar majburiyatlarini qisman yoki to'la ijro eta olmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy harajatlar, boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, Ushbu holatlar shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir etadigan bo'lsa, tomonlar shartnoma bo'yicha majburiyatlarini qisman yoki to'la ijro eta olmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.
- 6.3. Qurilish obyektga to'laligicha konservatsiya qilish haqidagi qaror qilingan kunga qadar bajarilgan ishlar haqi to'liq to'lanadi.

7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

- 7.1. «Buyurtmachi» «Pudratchi» ning aybi bilan qurilish grafik rejasi va loyiha shartlarida ko'rsatilgan ishlarning bajarilishi bir oydan ortiq vaqtga to'xtatilganda, ish sifati buzilganda, «Pudratchi» yuridik shaxs sifati qonunda belgilangan tartiblarda aniqlanganda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishdan asossiz bosh tortganda qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.
- 7.2. «Pudratchi» «Buyurtmachi» tomonidan asossiz ravishda 1 oydan ortiq vaqt mobaynida kurilish ishlari to'xtatilib qo'yilganda, moliyalashtirish to'xtatib qo'yish xuquqiga egadir.
- 7.3. Shartnomani bekor qilish haqidagi talablar taraflar bir-birini yozma ravishda xabardor qilingan holda 1 oylik muddat ichida ko'rib chiqilib, hal qilinadi. Shartnomani asossiz bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 7.4. Shartnoma bekor qilinganda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zarar va boy berilgan foydani to'laydi.

8. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

- 8.1. Ushbu shartnoma shartlarini bajarmagan, yohud lozim darajada bajarmagan taraf O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgust "Xo'jalik yurituvchi subyektlari faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonunining 24-36-moddalari normalariga asosan javobgarlikka tortiladi.

9. ALOHIDA QOIDALAR.

- 9.1. «Pudratchi» o'z kuchi mablag'i bilan olib kelgan qurilish materiallari va boshqa ashyolarning shartnoma va hamda loyiha talablariga mos kelishi haqida sertifikat texnik pasportlari bo'lishini ta'minlashi shart.
- 9.2. Qurilish materiallari va boshqa ashyolar «Pudratchi» tomonidan markazlashtirilgan omborlar orqali «Pudratchi» ning yozma (trebovaniye) orqali beriladi.
- 9.3. Kapital ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan transport vositalari maxsus transportlar «Yordamchi pudratchi» ixtiyorida bo'lmasa, «Pudratchi» tomonidan markazlashtirilgan usulda ta'minlanadi.
- 9.4. Qurilish materiallari va boshqa ashyolardan hamda transport vositalaridan foydalanilganlik uchun hisob-kitob qilish shartnoma doirasida amalga oshiriladi.
- 9.5. Shartnoma loyiha hamda qonun talablariga javob bermaydigan material va uskunalardan foydalanish ta'qiqlanadi.

10. SHARTNOMAGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH.

- 10.1. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish ikkala tomonni roziligiga asosan yozma ravishda bildiriladi.

11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

- 11.1. Shartnomani amal qilish muddati shartnoma ikki tomon o'rtasida imzolanib, G'aznachilik bo'linmasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab yuridik kuchga ega bo'ladi va 2022-yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

12. TOMONLARNING REKVIZITLARI.

«Pudratchi»

Nomi: "Mamatov Saloxiddin" xususiy korxonasi
Manzili: Chirokchi tumani Pakandi qishlog'i
Shx/r 20208000500265266001
STIR: 302747681, QQS x/r: 310140042799
MFO 01084
X/r: 23402000300100001010
Bank: Turonbank Chilonzor filiali

Rahbar:

S.Mamatov

«BUYURTMACHI»

ҚАҶШИ МУҲАНДИСЛИК ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ
ҚАҶШИ Ш. МУСТАҚИЛЛИК 225-УЙ
СТІР: 200666914 ОКОНХ: 92110
Ш.Х.Р.: 40041086010401704100075002
МОЛИЯ ВАЗИРЛИГИ ҒАЗНАЧИЛИГИ
2000300100001010
ОШКЕНТ Ш. БОШ БОШҚАРМАСИ
СТІР: 201122919

Rektor:

O. Sh. Bazarov

M.U.

O'zbekiston Respublikasi
Advokatlar palatasi

Qarshi shahar Nasaf huquq maslahatchisi
advokatlar hay'ati



Палата адвокатов
Республики Узбекистан
Адвокатский коллегия
"Насаф хуқуқ
маслаҳатчиси" города
Қарши

180108, Qarshi shahar, Нурбор ko'chasi, 230^A-uy 7-xona. Tel.: + (99897)312 63 63

07 ноябрь 2022 йил

Қарши муҳандислик иқтисодиёт
институтининг билан "Маматов Салоҳиддин"
хусусий корхонаси ўртасидаги 2022 йил
07 ноябрь кунги №12-сонли шартнома
юзасидан

ХУҚУҚИЙ ХУЛОСА

Мен М.Холмирзаев Қарши шаҳар "Насаф хуқуқ маслаҳатчиси" адвокатлар
хайъатида № KS000040-сонли лицензия асосида фаолият кўрсатаман.

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институтининг билан "Маматов Салоҳиддин"
хусусий корхонаси ўртасидаги 2022 йил 07 ноябрь кунги №12-сонли шартномаси
билан танишиб қуйидагиларни

АНИҚЛАДИМ:

Ушбу шартнома бўйича пудратчи "Маматов Салоҳиддин" хусусий корхонаси
буюртмачи Қарши муҳандислик иқтисодиёт институтининг буюртмасига мувофиқ
лойиха асосида уқув биносига туташ йўллари капитал таъмирлаш ишларини амалга
ошириши буюртмачи бажарилган ишларни қабул қилиши ва тўловни амалга ошириши
назарда тутилган. Шартнома қиймати 310.400.000. сўмни ташкил қилади.

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институтининг "бажарувчи"дан спецификация
асосида бажарилган ишларни қабул қилиб олишга ва тўловларни амалга оширишга
келишилган бўлиб, шартнома шартлари, жумладан, мажбуриятларни бажариш тартиби
ва муддатлари, тўлов муддатлари, жавобгарлик масалалари, тарафларнинг ҳуқуқ ва
мажбуриятлари, низоларни ҳал қилиш тартиби, қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш
тартиби ва бошқа шартлар Ўзбекистон Республикасининг Фуқоралик қонунлари, Ўзбекистон
Республикасининг 29 август 1998 йилдаги «Хўжалик юритувчи субъектлар
фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида»ги қонун нормалари талаблари
асосида тузилган.

Юқоридагиларга кўра, Ўзбекистон Республикасининг ФКнинг 353,357 ва 386
моддаларига асосланиб

ХУЛОСА ҚИЛАМАН:

"Буюртмачи" Қарши муҳандислик иқтисодиёт институтининг билан "Пудратчи"
"Маматов Салоҳиддин" хусусий корхонаси ўртасидаги 2022 йил 07 ноябрь кунги
№12-сонли шартномаси Ўзбекистон Республикасининг қонун талабларига мос равишда
тузилган деб ҳисоблайман.

Қарши шаҳар "Насаф хуқуқ маслаҳатчиси"
адвокатлар хайъати адвокати:-



М.Холмирзаев.